




ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



THE STRUCTURE OF THE BUKHARA PEOPLE'S SOVIET REPUBLIC AND THE MANAGEMENT SYSTEM IN IT

Murat Mirzaevich Allanazarov

PhD, Head of the Department

*Surkhandarya Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs
Uzbekistan, Surkhandarya*

ABOUT ARTICLE

Key words: Bukhara Emirate, Young Bukharan Party, Bukhara People's Soviet Republic (BPSR), Turkestan Front, Turkish Commission, Bukhara Provisional Revolutionary Committee, Bukhara People's Supervisory Council, Bukhara Communist Party, Central Committee, Constitution of the BPSR, state, symbols of the BPSR, Red Army, Independence, Jadidism.

Received: 26.08.24

Accepted: 28.08.24

Published: 30.08.24

Abstract: The article is devoted to the structure of the Bukhara People's Soviet Republic (BPSR) and its management system. In the first quarter of the twentieth century, important events took place in the life of the Uzbek people. At this time, our people, who lived under the colonial regime of the Russian Empire and the Bukhara Emirate under the monarchical regime, came up with the ideas of freedom and independence. On September 2, 1920, in Bukhara, the Emirati system was overthrown by red soldiers by force of arms. On September 14, 1920, at the general meeting of the Bukhara Council of People's Observers, the Revolutionary Committee and the Central Committee of the Bukhara Communist Party, the All-Bukhara Revolutionary Committee and the Republican Government - 11 members of the Council of People's Observers. were formed. On October 6-8, 1920, the First Congress of People's Representatives of Bukhara took place. At the congress, the formation of the Bukhara People's Soviet Republic was solemnly announced. Based on archival documents, the fact is analyzed that the Bolsheviks, who came to Bukhara under the guise of helping to create a democratic state, intervened here in political and socio-economic life and tried to turn it in the interests of Russia.

BUXORO XALQ SOVET RESPUBLIKASINING TUZILISHI VA UNDAGI BOSHQARUV TIZIMI

Murot Mirzayevich Allanazarov
PhD, kafedra boshlig‘i
IV Surxondaryo akademik litseyi
O’zbekiston, Surxondaryo

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Yosh buxoroliklar partiyasi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR), Turkiston fronti, Turkkomissiya, Buxoro Muvaqqat Inqilobiy qo‘mitasi, Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosi, Buxoro Kompartiyasi, Markaziy Qomiteti, BXSR Konstitutsiyasi, BXSRning davlat ramzlari, Qizil armiya, Mustaqillik, Jadidlar.

Annotatsiya: Maqola Buxoro Xalq Sovet Respublikasining (BXSR) tuzilishi va undagi boshqaruv tizimiga bag‘ishlanadi. O’zbek xalqi hayotida XX asr dastlabki choragida muhim hodisalar yuz berdi. Bu paytda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi sharoitida hamda Buxoro amirligida monarkik tuzumda yashagan xalqimiz ozodlik va mustaqillik g‘oyalarini ko‘tarib maydonga chiqdi. 1920 yil 2 sentyabrdan Buxoroda amirlik tizimi qizil askarlar tomonidan quroq kuchi bilan ag‘darib tashlandi. 1920 yil 14 sentyabrdan bo‘lgan Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosi, Inqilobiy Qo‘mitasi va Buxoro Kompartiya MArkaziy komitetining umumiylig‘i yig‘ilishda Butun Buxoro Inqilobiy Qo‘mitasi va respublika hukumati-11 kishidan iborat Xalq Nozirlar Sho‘rosi uzul-kesil shakllandi. 1920 yil 6-8 oktyabrdan Butunbuxoro xalq vakillarining I qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Qurultoyda Buxoro Halq Sovet Respublikasi tashkil topganligi tantanali ravishda e’lon qilindi. Buxoroda demokratik davlat tuzishga ko‘maklashish niqobi ostida kelgan bolsheviklar bu yerdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotga aralashib, uni Rossiya manfaatlariga burib yuborishga harakat qilganlilarini arxiv hujjatlari asosida tahlil qilingan.

СТРУКТУРА БУХАРСКОЙ НАРОДНОЙ СОВЕТСКОЙ РЕСПУБЛИКИ И СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ В НЕЙ

Мурат Мирзаевич Алланазаров
PhD, заведующий кафедрой
Сурхандарьинский академический лицей МВД
Узбекистан, Сурхандарья

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Бухарский эмират, Партия младобухарцев, Бухарская Народная Советская Республика (БНСР), Туркестанский фронт, Турецкая комиссия, Бухарский временный революционный комитет, Бухарский народный

Аннотация: Статья посвящена устройству Бухарской Народной Советской Республики (БНСР) и системе ее управления. В первой четверти XX века в жизни узбекского народа произошли важные события. В это время наш народ,

наблюдательный совет, Бухарская компартия, ЦК, Конституция БНСР, государство, символы БНСР, Красной Армии, Независимости, Джадидов.

живший при колониальном режиме Российской империи и Бухарском эмиратае при монархическом режиме, выступил с идеями свободы и независимости. 2 сентября 1920 года в Бухаре эмирский строй был свергнут красными солдатами силой оружия. 14 сентября 1920 года на общем собрании Бухарского совета народных наблюдателей, Ревкома и ЦК Бухарской коммунистической партии, Всебухарского ревкома и республиканского правительства – 11 членов Совета народных наблюдателей. были сформированы. 6-8 октября 1920 года состоялся Первый съезд народных представителей Бухары. На съезде было торжественно объявлено об образовании Бухарской Народной Советской Республики. На основе архивных документов проанализирован тот факт, что большевики, пришедшие в Бухару под видом помощи в создании демократического государства, вмешивались здесь в политическую и социально-экономическую жизнь и пытались повернуть ее в интересах России.

KIRISH

O‘zbek xalqi hayotida XX asr dastlabki choragida muhim hodisalar yuz berdi. Bu paytda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi sharoitida hamda Buxoro amirligi va Xiva xonligida monarxik tuzumda yashagan xalqimiz ozodlik va mustaqillik g‘oyalarini ko‘tarib maydonga chiqdi. Turkiston taraqqiyatvarlari va jadidlar bu kurashga boshchilik qilishdi. Buxoro amirligi hududida ham Yosh buxoroliklar partiyasi islohotlar o‘tkazish uchun siyosiy kurash maydoniga kirdi.

1917 yil fevral va oktyabrda Petrogradda bo‘lgan inqilobiy voqealar Turkiston o‘lkasi va Buxoro amirligi siyosiy hayotiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Muvaqqat hukumatning qariyb sakkiz oy davom etgan qisqa faoliyati bolsheviklar va sovet hokimiyati tomonidan to‘xtatildi. Bolsheviklar 1917 yil kuzida avval Petrograd va Moskva shaharlarida, so‘ngra ulkan mamlakatning boshqa hududlari hamda Toshkent, Samarqand va Turkiston o‘lkasining boshqa shaharlarida hokimiyatni zo‘ravonlik bilan bosib olib, yangi hukumat, ya’ni sovet hukumati tuzganliklarini e’lon qilishdi.

ASOSIY QISM

Buxoro amirligida ham 1917-1920 yillarda siyosiy vaziyat taranglashdi. Toshkentda noqonuniy o‘rnatilgan sovet hokimiyati hamda bolsheviklar 1918 yil erta bahorida (Turkiston

Muxtoriyati hukumati Qo‘qonda tor-mor qilingandan so‘ng) Turkiston o‘lkasi Xalq Komissarlari Soveti raisi F.Kolesov boshchiligidagi Buxoroga harbiy hujum uyuştirdi[1]. 1918 yil mart oyining bosqlarida Buxoroga qilingan Kolesov hujumi muvaffaqiyatsizlikka uchrab, har ikki o‘rtada 1918 yil 25 martda Qiziltepa temir yo‘l stansiyasida bitim imzolandi. Bu ыitimni Turkistondagi sovet hokimiyati nomidan qizil gvardiyachilar otryadi komissari V.Schmidt, Buxoro amirligi tomonidan bosh zakotchi Mirza Salim Parvonachi (Mirza Salimbek) imzolashdi[2]. Muzokaralar jarayoniga V.Schmidt raislik, A.Solkin kotiblik, P.Vvedenskiy tarjimonlik qilgan[3].

Qiziltepa bitimi 9 banddan iborat bo‘lib, bitim shartiga ko‘ra, ozodligi va mustaqilligini bosqinchi sovet qo‘shinlaridan himoya qilgan Buxoro amirligi o‘z hududidagi harbiy harakatlar uchun javobgar deb hisoblandi va katta miqdorda tovon puli to‘lash lozimligi belgilandi[4]. Amir o‘z sarbozlari miqdorini 12 000 kishidan oshirmaslik majburiyatini oldi. Biroq bitimda amirlikning ichki hayotiga taalluqli hech qanday fikrlar yo‘q edi. Shu bilan birga qizil askarlar ham amirlik hududidan chaqirib olindi[5].

Xullas, 1918 yil erta bahordan to 1920 yil kuzigacha Buxoro amirligi doimiy ravishda sovet hokimiyati va bolsheviklarning harbiy kuchlari bo‘lgan qizil armiyaning tahdidi va bosqini xavfi ostida bo‘ldi. 1920 yil avgust oyida Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi hamda RSFSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Turkiston ishlari bo‘yicha komissiya (Turkkomissiya) hamda RKP(b) Markaziy Komiteti Turkiston byurosi (Turkbyuro) Buxoro amirligini bosib olish uchun Moskvadan (V.Lenin, I.Stalin, L.Troskiy va boshqa sovet davlati rahbarlaridan) ruxsat olgach, Turkiston fronti (Turkfront) qo‘shinlariga Buxoro shahriga hujum qilish uchun ko‘rsatma berdi.

Turkiston fronti qo‘mondoni M.Frunze Samarcand shahridan turib harbiy harakatlarga rahbarlik qildi. Fayzulla Xo‘jayev boshchiligidagi Inqilobchi Yosh buxoroliklar firqasi faollari bu paytda Yangi Buxoro (hozirgi Kogon) shahrida turib, qizil armiyaning Buxoroga hujumi hamda bosqin oqibatlarini kuzatishdi.

Turkiston komissiyasi Buxorodagi amirlik rejimiga qarshi turuvchi muxolifat kuchlarini jipslashtirish va mamlakatda to‘ntarish hozirlash bilan bevosita shug‘ullandi. Aynan Turkiston komissiyasi rahbarligida 1920 yil 24 iyundayoq Buxoroda qurolli qo‘zg‘olon tayyorlash bo‘yicha harbiy-inqilobi byuro tuzilgan bo‘lib, uning tarkibiga Turkiston komissiyasi a’zolari M.V. Frunze va V.V. Kuybishev, Turkiston Kompartiyasi MK kotibi Nazir To‘raqulov, Buxoro Kompartiyasi MK kotibi Najib Husainov, Yosh buxoroliklar partiyasi Markaziy byurosining raisi Fayzulla Xo‘jayev va boshqalar kirdi. Harbiy-inqilobi byuro xitobnomasi va dekretlarning loyihamini tayyorlab, ularni “inqilob” g‘alaba qozonadigan kuni Butunbuxoro Inqilobiy Qo‘mitasi (revkom) nomidan e’lon qilishni mo‘ljallagan edi. 1920 yil 10 avgustda Turkiston komissiyasi, Buxoro Kompartiyasi Markaziy Komiteti va Yosh buxoroliklar partiyasi Markaziy byurosining qo‘shma majlisida Fayzulla Xo‘jayev boshchiligidagi Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosi hukumati va Ahmadjon

Abdusaidov (Hamdiy) raisligida Buxoro Muvaqqat Inqilobiy qo‘mitasi tuzildi,[6] ular amirlik ag‘darib tashlangandan keyin Buxoro davlatini boshqarishlari lozim edi. 23 avgustda bo‘lgan Turkiston komissiyasining navbatdagi majlisida Buxoro “inqilobiy” hukumatining dasturi muhokama etildi va qabul qilindi.[7] Biroq qizil askarlar Buxoroni bosib olgach, bu hukumat tuzilmalarida ancha o‘zgarishlar qilindi.

Shunday qilib, Buxoroda hali “inqilob” boshlanmasdan turib, Toshkentda RKP (b) MK va RSFSR hukumatining vakolatli organlari bevosita rahbarligida “inqilob” g‘alaba qozongandan keyin o‘rnataladigan yangi tuzum va davlat shakli qanday bo‘lishi kerakligi aniqlab olindi, yangi hukumat organlarining tartibi, ularning dasturi, dekretlari va boshqa ishlar belgilab qo‘yilgan edi. Gap endi faqat da’vat qilinishi lozim bo‘lgan “inqilob”ning o‘zini amalga oshirishda qolgan edi[8]. Bu jarayonlarda Buxoro Kommunistik partiyasi va inqilobchi Yosh buxoroliklar partiyasi rahbarlari o‘rtasida keskin tortishuvlar va jiddiy munozaralar bo‘lgan bo‘lsa ham ular Rossiya bolsheviklari fikrini qabul qilishdi va harbiy yordam so‘raldi.

1920 yil 21 avgustda Turkiston fronti qo‘mondoni M.V. Frunze va Turkiston fronti Harbiy inqilobiy kengashi a’zosi Yu. Ibrohimov RSFSR Harbiy ishlar xalq komissari L.D. Troskiy nomiga telegramma yo‘llab, Buxoroni bosib olishga hamma narsa tayyor ekanligini ma’lum qilishganida, bolsheviklarning rahbarlaridan biri I.V. Stalin bu teleogrammaga “o‘rtoq Frunze reseptiga ko‘ra zudlik bilan harakat qiling”, deb rezolyusiya qo‘ygan[9]. Bu jumlaning ostiga esa V.I. Lenin va N.I. Buxarin “rozman” deb qo‘l qo‘yishgan[10].

1920 yil 25 avgustda qo‘mondon M.V. Frunze Turkiston fronti qo‘shinlariga “qo‘zg‘olon ko‘targan Buxoro mehnatkashlariga yordam ko‘rsatish to‘g‘risida” buyruq berdi. Zarbdor guruhlarning ko‘pchiligiga dastlabki marralarni egallash va 29 avgustga o‘tar kechasi faol harakatlarni boshlash buyurildi. Jang harakatlariga siyosiy jihatdan rahbarlik qilish uchun Yangi Buxoro (Kogon) shahriga Turkiston komissiyasi va Turkiston byurosining yangi a’zosi G. Safarov va Yosh buxoroliklar partiyasi rahbarlari jo‘natildi. Front qo‘mondoni M.V. Frunze Samarqand shahridan turib telegraf orqali harbiy amaliyotlarga bevosita rahbarlik qildi. Bosqinchi qizil armiya tomonidan poytaxt Buxoro shahriga hujum ham 29 avgustga o‘tar kechasi boshlandi. Hal qiluvchi janglar Buxoroyi sharif darvozalari yaqinida ro‘y berdi[11]. Bu voqealarning bevosita shohidi quyidagicha yozgan edi: “Shahar markazi yer bilan yakson qilindi. Jang davomida ko‘plab samolyotlar va zambaraklar ishga solindi. Minglab snaryadlar va bombalar Eski Buxoro ustiga yog‘dirildi. Shahar himoyachilaridan tashqari ko‘plab begunoh keksalar, ayollar va bolalar halok bo‘ldilar. Yuzlab aholi uy-joylari, me’morchilik va tarixiy obidalar yer bilan yakson bo‘ldi. Registon yondirildi”[12].

Eski Buxoro shahri 29 avgustdan boshlab ham havodan, ham yerdan qattiq bombardimon qilingan. 1 – 2 sentyabr kunlari Buxoroning Qarshi darvozasigacha kelgan temir yo‘lda turgan

bronepoyezd hamda Samarqand, Shayx Jalol, Namozgoh darvozalari yaqinida joylashtirilgan to‘plardan shaharga 12000 ta snaryad tashlangan, 12 ta harbiy aeroplan esa shahar ustida 3 kun mobaynida bomba yog‘dirgan. Bir necha yuz ming dona patron sarflangan. Shaharning Qarshi va Samarqand darvozalari tagiga 800 kg dan ortiq porox ko‘milib portlatilgan. Qulab tushgan darvozalardan qizil askarlar shaharga bostirib kirganlar. Muqaddas Buxoroyi sharifda qaqshatqich ko‘cha janglari boshlanib ketgan.

Amir Olimxon shahar obidalari va aholini omon saqlash maqsadida poytaxt Buxoro shahrini tashlab chiqib ketgan. Qizil qo‘sish aeroplani uni qidirib topish bahonasida Buxoro shahridan tashqari shahar atrofidagi qishloqlarni, tarixiy obidalardan Sitorai Mohi Xosani bombardimon qilgan. Shafqatsiz o‘q yomg‘irlari va bombardimon natijasida shahar obidalarining 3/5 qismi vayron etilib, minglab begunoh odamlar nobud bo‘lgan.

Shunday qilib, 1920 yil 2 sentyabrda Buxoroda amirlik tuzumi qizil askarlar tomonidan qurol kuchi bilan ag‘darib tashlangan. O‘sha kuni qizil askarlar Buxoro hukmdorlarining qarorgohi – Ark (Arki Oliy)ni egallab, uning ustiga o‘z bayroqlarini tikladilar. Qizil armiyaning Buxorodagi bosqiniga boshchilik qilgan M.V. Frunze Moskvaga – RSFSR XKS raisi V.I. Leninga telegramma yo‘llab, Eski Buxoro qal’asi qo‘lga kiritilganligi hamda “Buxoro mustabidlari va qora guruhlarining oxirgi tayanchi tugatilgan” ligini “zo‘r mammuniyat” bilan ta’kidlaydi[13].

Sayyid Mansur Olimiy (Amir Said Olimxonning o‘g‘li, 1931 yil Afg‘onistonda tug‘ilgan) tomonidan yozilgan “Buxoro – Turkiston beshigi” nomli asarda qizil armiyaning Buxoroga bosqini va amirning Buxoro taqdiri hal qilinayotgan fursatdagi tadbiri quyidagicha yoritilgan: “Tungi soat ikki yarimda Frunze lashkarlari Buxoroga hujum boshladi. O‘n ikki aeroplan Buxoroni kecha-kunduz bombardimon qildi. Natijada 50 000 dan ortiq erkak va ayol, bolalar halok bo‘ldi, uylar, masjidlar, madrasalar, tijoratxonalar vayron etildi. Amir tomonidan hozirlab qo‘yilgan jang anjomlari, zaxiralari vayron etilib, kommunistlar tarafidan yondirib yuborildi.

Amir Olimxon uzoqqa otar to‘plar va qizil askarlarga qarshi olib borgan to‘rt kunlik janglardan so‘ng Buxoro aholisi jonini saqlab qolish maqsadida hamda dushmanlarga qarshi jang qilish uchun o‘z kuchining zaifligini anglab, kurashni to‘xtatishga majbur bo‘ldi. Shanba kuni Sitorai Mohi Xosa bog‘ini tark etib, payshanba kuni Afg‘oniston elchisi Abdushukurxon, Toshkentdag‘i elchi Muhammad Aslamxon Sayg‘oni mirishkor, afg‘on lashkari qozisi hamda 25 ming Buxoro va afg‘on sarbozlari ishtirokida G‘ijduvon orqali Vatandan chiqib ketdi”.[14]

Bu holatni Said Olimxonning o‘zi keyinchalik yozgan “Buxoro xalqining hasrati tarixi” nomli xotiralarida quyidagicha tasvirlagan edi: “To‘p o‘qlarining ko‘pligi, bomba yog‘dirishlar, talafot va xarobaliklar Buxoro shahrida ortib ketib, kambag‘al beva-bechoralarni qattiq tashvishga solib qo‘ydi. Shunda o‘zimcha o‘yladim. Bu bandai ojiz ushbu Buxoroi sharif shaharidan ko‘chishni ixtiyor etsam, shoyad shu sababdan xarobalikka bo‘lgan sabablar yo‘lini to‘sib, faqiru

fuqaro bechoralarni bu jabr-sitamlardan ozod qilsam va osoyishtalik baxsh etsam, degan andishada chahorshanba kuni tushdan keyin soat to‘rtlarda foytunga o‘tirib, misoli hazrat Payg‘ambar alayhissalom sunnati bo‘lmish hijrat kabi ko‘chishni ixtiyor etdim. Shohlik bog‘i sanalgan Sitorayi Mohi Xosadan chiqib, Tumani Komot (Vobkent) va Xarqonrud, ya’ni G‘ijduvon tarafga ravona bo‘ldim”.[15]

O‘sha davr voqealarining bevosita shohidi bo‘lgan mahalliy tarixchi Muhammad Ali Baljuvoniy o‘zining “Tarixi nofeiy” (“Foydali tarix”) asarida qizil askarlar tomonidan qilingan Buxoro bosqini oqibatlarini quyidagicha tasvirlaydi: “Buxoroni bosib olish natijasida 34 ta guzar, 3000 dan ortiq do‘kon, 20 ta saroy, 29 ta masjid yonib xarob bo‘ldi. Minorai Kalonga ham zarar yetib, Olimxon va Mir Arab madrasalari qisman yonib ketdi.. Hazrati Imom darvozasidan Guzari Nazargacha, Kofirobod, O‘g‘lon darvozasi, Masjidi Kalon, Zindondan To‘qumdo‘ziy hammomigacha, minora ostidan to So‘zangaron dahasi, Gulbozor, Lattafurushlar rastasi, Registondan to Puli Oshiqonning boshigacha batamom yonib ketdi. Qarshi darvozasi ham yonib bitdi. Shaharda uch mingga yaqin hovli yonib kul bo‘ldi. Buxoro shahri qariyb 20 kun yongandi. Buxoroning shu darajada xarob bo‘lganini hech bir tarix ko‘rmagan edi”[16]. Buxoroliklar bu kunlarni “kichik qiyomat” deb atashgan.

Turkiston fronti inqilobiy-harbiy byuro uchligining a’zosi A. Mashiskiyning 1920 yil sentyabrda V.I. Leninga yozgan ma’lumotnomasida Buxoro shahri markazi yakson qilingan, Registon va Ark yondirilgani, Ark yerto‘lalari va omborxonalaridagi butun boyliklar – oltin, kumush, brilliantlar talangani, bunda qizil armiya bevosita qatnashgani haqida xabar bergen. Qariyb 15 sentyabrgacha davom etgan Buxoro talovining guvohi bo‘lgan Turkiston komissiyasi a’zosi G. Safarov o‘z ma’lumotlarida shunday yozgan edi: “Buxoroga kelgan qizil qo‘shinlar eng avvalo talonchilik bilan shug‘llandilar. Ular hammani va hamma narsani taladilar. Umuman qizillar Buxoroni talash uchun kelgan edilar”[17].

Dahshatli janglar natijasida Eski Buxoroning tinch aholisidan anchagina qismi, shuningdek, shahar devorlari orqasida jon saqlagan atrof qishloqlarning ko‘pgina aholisi halok bo‘ldi. Voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rganlardan birining guvohlik berishicha, o‘lganlar shu qadar ko‘p ediki, ularni yig‘ishtirib olishga ulgurishmasdi[18]. Qadimiy Buxoro shahri o‘t va xarobalar ichida goldi. Shaharning deyarli yarmi yonib bo‘lgan, 4/5 qismi xarobalar ostida yotar edi. Ayniqsa, Turon mintaqasidagi eng qadimiy me’morchilik obidasi bo‘lgan Arki oliv katta shikast ko‘rdi, qizil qo‘shin artilleriyasi unga qarab to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘q yog‘dirgan edi[19].

Buxoroda amirlik tuzumi ag‘darib tashlanmasdan ancha avval – 1920 yil 10 avgustda Toshkentda bo‘lg‘usi hokimiyat organlari tuzilgan edi. F.Xo‘jayevning yozishicha, Ahmadjonov Abdusaidov (Hamdi) raisligida butun Buxoro Muvaqqat inqilobiy qo‘mitasi (revkom), F.Xo‘jayev

raisligida Buxoro Halq Nozirlar Sho‘rosi tashkil qilingan. Qizil askarlar Buxoroni bosib olgach, bu xokimiyat tuzilmalarida ancha o‘zgarishlar qilindi.

1920 yil sentyabr boshlarida Buxoro Muvaqqat inqilobiy qo‘mitasi (revkom) amirlik tuzumi ag‘darib tashlanganligi va mustaqil Buxoro Xalq Respublikasi tuzilganligini e’lon qildi.

1920 yil 14 sentyabrdan bo‘lgan Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosi, Inqilobiy Qo‘mitasi va Buxoro Kompartiyasi Markaziy Komitetining umumiy yig‘ilishida Butunbuxoro Inqilobiy Qo‘mitasi (raisi – Abdulqodir Muhitdinov) va respublika hukumati – 11 kishidan iborat Xalq Nozirlar Sho‘rosi (raisi – Fayzulla Xo‘jayev) uzil-kesil shakllandi.[20] Mamlakatni boshqarish maqsadida tuzilgan Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosi tarkibi quyidagicha edi: rais va xorijiy – tashqi ishlar (nozir - Fayzulla Xo‘jayev), maorif (Qori Yo‘ldosh Po‘latov), doxiliya – ichki ishlar (Muxtor Saidjonov), moliya (Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev), davlat nazorati (Najib Husainov), favqullodda komissiya (raisi – Yusuf Ibrohimov), adliya (Mukammil Burhonov), harbiy ishlar (Bahovuddin Shahobbiddinov), yer-suv ishlari - dexqonchilik (A.Muhitdinov)[21] nozirliklari. Keyinchalik Nozirlar Sho‘rosi tarkibiga Mirzo Muhitdin Mansurov – savdo va sanoat noziri qilib kiritildi.[22]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, asosan Yosh buxoroliklar hamda taraqqiyatparvarlardan shakllangan Buxoro hukumati vakillari o‘zlarining islohotchilik g‘oyalarini yangi hukumatdagi faoliyatlar davomida amalga oshirishga harakat qildilar.

1920 yil 6–8 oktyabrdan amirning yozgi saroyi – Sitorai Mohi Xosada Butunbuxoro xalq vakillarining I qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Qurultoya bolsheviklar asosan sovet Rossiysi manfaatlarini ko‘zlaydigan delegatlarni ko‘proq chaqirishga harakat qilindi.

Mazkur qurultoyda 1950 nafar delegatlar qatnashdi[23]. Anjumanda Buxoro Xalq Sovet respublikasi (BXSR) tashkil topganligi tantanali ravishda e’lon qilindi. Shu tariqa, oradan bir oy o‘tar-o‘tmas, Buxoro Xalq Respublikasi bolsheviklarning qattiq talabi bilan Buxoro Xalq Sovet Respublikasiga aylantirildi[24].

Buxoroda yangi tashkil topgan BXSR davlati tuzumi jihatidan xalq demokratik respublikasi edi. Uning zimmasiga qisqa muddat ichida o‘rtta asrchiлик an’analari meros qolgan amirlik Buxorosini demokratik davlatga aylantirishdek tarixiy vazifani bajarish tushdi.

Qurultoy davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi oliy organi bo‘lgan Butunbuxoro Markaziy Inqilobiy Qo‘mitasi (Markaziy Revkom), Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosi - dastlabki hukumat tarkibini uzil-kesil tasdiqladi. Ularning vakolat muddati II qurultoygacha uzaytirildi[25].

Ushbu qurultoyda I.Ye.Lyubimov RSFSR hukumati Buxoro respublikasi mustaqilligini tang olganligini aytishga shoshildi. Buxoro hukumati oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri yer-suv

masalasini hal qilish edi. 1920 yil 30 sentyabrda Butunbuxoro Markaziy Revkomi “Yer to‘g‘risida”gi dekretni qabul qildi[26].

Dekretga muvofiq sobiq amir, uning qarindoshlari va amaldorlari qo‘lidagi butun yer-mulk kambag‘al va yersiz dehqonlarga berilishi kerak edi. Shuningdek, dekretga ko‘ra “amlok” va boshqa soliqlar bekor qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти: миллий-демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси. – Тошкент: Маънавият, 2000; Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати (1920-1924 й.). - Тошкент: Маънавият, 2002; Ўша муаллиф. Туркистон Мухторияти вазирлари ҳамда Миллий Мажлис аъзолари ҳаёти ва тақдири. – Тошкент: Bodomzor-invest, 2021.
2. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата). Перевод с персидского, вводная статья и примечания Н.К. Норкулова. – Ташкент: “Akademiya”, 2009. – С. 169-206.
3. “Советский Туркестан” (Ташкент). №12. 28 июня 1918 г.
4. Ражабов Қ., Мақсудов Р. Қизилтепа тарихи. – Тошкент: Muhammarr, 2011. – Б. 118-126.
5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий мухаррир М. Жўраев. – Тошкент: “Шарқ”, 2000. –Б. 116-117; Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Научный редактор Р.Я.Раджапова. –Ташкент: «Шарқ», 2000. – С. 294-295.
6. Файзулла Хўжаев. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар // Файзулла Хўжаев. 100. – Тошкент: “Фан”, 1997. –Б. 172 – 173.
7. Ишанов А. Бухарская Народная Советская Республика. – Ташкент: “Узбекистан”, 1969. –С. 179 – 180, 186 – 187.
8. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида ... –Б. 126 – 127.
9. Персиц М.А. Застенчивая интервенция. О советском вторжении в Иран и Бухару в 1920 – 1921 гг. 2-изд. –Москва: “Муравей-Гайд”, 1999. –С. 86.
10. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Масъул мухаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: O’zbekiston, 2019. – Б. 126-128.
11. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати (1920 – 1924 йиллар). – Тошкент: “Маънавият”, 2002. –Б. 12.

12. Генис В. Разгром Бухарского эмирата в 1920 году // “Вопросы истории”, 1993. № 7. – С. 49 – 50.
13. М.В. Фрунзе на фронтах гражданской войны. Сборник документов. –Москва: “Воениздат”, 1941. – С. 317.
14. Сайид Мансур Олимий. Бухоро – Туркистон бешиги. Форс тилидан X. Тўраев таржимаси. –Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2004. – Б . 83 – 84.
15. Амир Сайид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. Форсийдан А. Ирисов таржимаси. – Тошкент: “Фан”, 1991. –Б. 15.
16. Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофей (Фойдали тарих). –Б. 70 – 71.
17. Сафаров Т. Колониальная революция (Опыт Туркестана). –Москва: “Госиздат”, 1921. – С. 80.
18. Крушельницкий В. Телеграф орқали сўралган диктатура // “Фан ва турмуш”, 1990. № 4. –Б. 13.
19. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Рахимов, К.Ражабов. – Тошкент: O’zbekiston, 2019. – Б. 132-133.
20. Бу ҳақида қаранг ва таққосланг: Файзулла Хўжаев. Бухоро инқи lobinинг тарихига материаллар. – Тошкент: Фан, 1997. – Б.173; Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар. Уч томлик. Том 1. –Тошкент: Фан, 1976. – Б.201–202.
21. Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар. Уч томлик. Том 1. –Тошкент: Фан, 1976. – Б.202.
22. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Масъул муҳаррирлар: Д.Алимова, Э.Ртвеладзе. –Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.193.
23. История Бухарской и Хорезмской Народных Советских Республик. - Москва: «Наука», 1971. С.130.
24. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Б.233.
25. Ишанов А.И. Бухарская Народная Советская Республика. –Ташкент: Узбекистан, 1969. С. 215.
26. Ўзбекистон миллий архиви, 46-фонд, 1-рўйхат, 115-иш, 87-варақ.